

PEDAGOGLARDA BADIY-TARIXIY ASARLAR VOSITASIDA SHAXSIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Mavluda Qodirova

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14620520>

Annotatsiya: Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini shakllantirish uchun uzoq davrlar mobaynida yaratilgan pedagogik merosning muhim jihatlariga e'tibor qaratgan holda saralash va ta'lim-tarbiya mazmuniga tadbqiq etish lozim. Ta'lim mazmuniga buyuk mutaffakkirlar merosidan talabalarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan yondashuvlarni ajratib olib, singdirish taqozo qilinmoqda.

Kalit so'zlar: Kitobxonlik, madaniyat, tarqqiyot, rivojlanish, savodxonlik, badiiy asar, pedagogik ong, ta'lim, aqliy, ma'naviy, diniy, jismoniy, nazariy-pedagogik, ijtimoiy.

Аннотация: Сегодня для формирования педагогического мастерства будущих учителей необходимо отбирать и применять в содержании образования и воспитания, обращая внимание на важные аспекты педагогического наследия, созданного на протяжении длительного периода времени. Необходимо извлекать и интегрировать в содержание образования подходы, служащие развитию учебно-познавательной деятельности учащихся из наследия великих мыслителей.

Ключевые слова: чтение, культура, распространение, развитие, грамотность, художественное произведение, педагогическое сознание, образование, умственное, духовное, религиозное, физическое, теоретико-педагогическое, социальное.

Abstract: Today, in order to form the pedagogical skills of future teachers, it is necessary to select and apply to the content of education and upbringing, paying attention to the important aspects of the pedagogical heritage created over a long period of time. It is necessary to extract and integrate into the content of education approaches that serve to develop students' educational and cognitive activities from the heritage of great thinkers.

Keywords: reading, culture, circulation, development, literacy, work of art, pedagogical consciousness, education, mental, spiritual, religious, physical, theoretical-pedagogical, social.

Kitob umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, unga har qanday vaziyatda ham hamroh bo'luvchi sodiq do'st. Insonning ma'naviy kamolotini ta'minlashda kitob singari kuchli qudratga ega vosita yo'q. Shu bois azal-azaldan ma'rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ilmu odob sirlarini o'rganishga chorlab kelishgan.

Talaba-yoshlarning mutolaaga qiziqishi susayishi, o'z navbatida, aholi savodxonligi darajasining pasayishi jamiyat taraqqiyotining barqaror rivojlanishi uchun katta tahdidlardan sanaladi. Shuning uchun ham ko'plab rivojlangan mamlakatlarda bu salbiy holatning oldini olishga qarshi qat'iy chora-tadbirlar ko'rilmogda [1]. Xorijiy davlatlar tajribasida uzoq aholi punktlarida yashaydigan hamda kutubxonalarga borish imkoniyati cheklangan fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida ko'chma kutubxona xizmatini rivojlantirish, kutubxonalararo abonoment va hujjatlarni yelektron yetkazib berish, kutubxona resurslaridan masofaviy foydalanish yo'lga qo'yilgan. Bunda individual, guruh hamda ommaviy kitobxonlikni tizimli ravishda tashkil qilishni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini tarbiyalash, yuksak badiiy

asarlarga oshno qilish, kutubxonalar imijini yuksaltirish bo'yicha aniq mexanizmlarning [2] yaratilishi kabi takliflar ilgari surilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning "Yoshlarni kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga, ularning kitob bilan do'st bo'lishiga, aholining kutubxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim" [3]ligi borasidagi yondashuviga tayangan holda bo'lajak pedagoglarda badiiy-tarixiy asarlarga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga tadqiqot davomida alohida e'tibor qaratildi. Ishning asosiy negizi bo'lgan badiiy asar, uning sifatlari haqida talqin qilingan milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini talabalar ixtiyoriga havola etish bilan tadqiqot ishonchli va samarali bo'lishi ta'minlandi. Shu jihatlardan ham, oliy ta'lim negizida talabalarda shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratishda tarixiy-badiiy asarlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Pedagogik g'oyalar turli davrda jamiyat va shaxs taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq holda vujudga kelgan va muayyan davrning ijtimoiy buyurtmasini o'zida mujassamlashtirgan. Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini maqsadga muvofiq holda shakllantirish uchun uzoq davrlar mobaynida yaratilgan pedagogik merosning muhim jihatlariga e'tibor qaratgan holda saralash va ta'lim-tarbiya mazmuniga tadbqiq etish lozim. Ta'lim mazmuniga buyuk mutaffakkirlar merosidan talabalarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan yondashuvlarni ajratib olib, singdirish taqozo qilinmoqda. Ma'lumki, qaysi davrda bo'lmasin inson harakatlarining asosini bilim tashkil etadi. Zardushtning ta'biri bilan aytganda, hayotning asosini ma'rifat tashkil etadi. Zardushtiyalar ushbu qoidaga amal qilgan holda o'z farzandlariga aqliy, ma'naviy, diniy, jismoniy yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya berganlar. Zardushtiylik dinida yoshlarning jismoniy, aqliy ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilib, u ma'naviy poklik bilan uyg'un tarzda talqin etilgan. Yoshlarga ma'naviy poklikning asoslari haqida zarur bilimlar berilgan.

Ta'limda ko'rgazmali qurollardan, hikoya, suhbat, muloqot usullaridan keng foydalanilgan. O'tilgan mavzularni mustaqil takrorlab tushunib olishga alohida e'tibor qaratilgan. Ustoz-shogird munosabatlarining me'yorlari hamda o'qitish usullari qat'iy belgilab qo'yilgan. Ustozlar donishmandlik sirlarini egallashi lozimligi haqida Avestoda alohida ko'rsatib o'tilgan. Avestoda yoshlarning aql-zakovatini o'stirishga alohida talablar qo'yilgan. Zardusht o'z xalqi, farzandlari uchun yomon muallimlar bo'lmasligini istaydi. Ushbu fikr bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash sifatini takomillashtirish uchun ham muhim ahamiyatga ega[4].

Har qanday ish-harakat, faoliyat faolliklarini o'zlashtirishda uni tashkil etishga qanchalik ko'p kuch sarflash emas, balki jarayonning davomli, izchil, uzluksiz bo'lishi samarali sanaladi. Badiiy - tarixiy vositasida talabalarni shaxsiy shaxsiy sifatlarini takomillashtirishda badiiy - tarixiyasarni mutolaa qilishda uning kichik teatr tomoshasiga aylantirish, talabalarining o'zlarini ham unda ishtirok etishga jalb qilish kutilgan natijaga olib keladi. Pedagogik va psixologik jihatdan talabalarni Bvositasida shaxsiy sifatlarini ning metodik tizimini takomillashtirishda tashkiliy, moddiy ta'minotini yaratuvchi nashriyotlar, nazariy-pedagogik va amaliy-metodik jihatdan oqilona, samarali uyushtira olmayotgan ota-onalar, o'qituvchilar hamda soha uchun mas'ul ijtimoiy tashkilotlarning javobgarligini inkor qilib bo'lmaydi. Binobarin, ta'lim jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish talabalarda kutubxonlik madaniyatini shakllantirishning tashkiliy-metodik jihatlarini takomillashtirish bilan bog'liqdir [5].

U talabalarda xaqiqiy bilim hosil qilish, mustaqil va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish, olgan bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish layoqatini shakllantirish zarurligini ta'kidlagan. Biz yuqorida keltirib o'tgan fikrlarimiz esa oliy ta'lim tizimi samaradorligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Yosh avlodni sog'lom fikrli kadrlar qilib tarbiyalashda biz har bir soahni ahamiyatiga va natijalriga tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

References:

1. Gappoeva L.A. Pedagogicheskie usloviya podgotovki studentov universiteta – budущix uchiteley k formirovaniyu chitatelskoy kultury mladshix shkolnikov / Monografiya. – M.: Direkt-Media, 2014. – 160 s.
2. Lovkova T.B. (2010) Dosugovoe chtenie molodeji v sta zerkalax// Sotsiolog i psixolog v biblioteke : sb. statey i materialov. Выр. 7. – M.: Ros. gos. det. b-ka; Ros. gos. b-ka dlya molodeji. – S. 125-134.
3. Kuronbaev K.K. Pedagogicheskie osnovy razvitiya duxovnoy i sotsialnoy aktivnosti studentov (na primere molodoyojnyx organizatsiy): Avtoref.diss. ... kand.ped.nauk. – T.: 2000. – 23 s.
4. Jo'rayev N.S. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qish motivlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari. Ped. fan. nomz. ... diss. – Toshkent: 2009. – 143 b.
5. Dobrynina N.Ye. V mir knig do rojdeniya: kogda uchit rebenka chitat // J. Knijnoe obozrenie. – M.: 2000. - №16. – S. 4.
6. Asranbayeva, M. (2024). MUSTAQIL TA'LIM O'QUV FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(12), 505-508.
7. Asranboyeva, M. H. (2024). Bola shaxsini shakllanishiga oila muhitining ta'siri. Science and Education, 5(11), 177-182.
8. Асранбоева, М. Х. ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ РОДИТЕЛЬСКИХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ НА ОБРАЗОВАНИЕ ДЕТЕЙ. ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ,
9. Kamolova, A. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasining manbalarini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Fan va ta'lim" Ilmiy jurnali/Impact Factor , 3 , 590-592.
10. Xayrullayev, M. M. O. G. L., & Kamalova, A. O. Q. (2024). Kimyo fanlarini o 'qitishda rolli o'yinlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari. Science and Education, 5(11), 187-190.
11. Kamolova, A. O., & Akramjonova, F. A. (2024). PEDAGOGIK FAOLIYAT JARAYONLARIDA INNAVATSION TA'LIM JARAYONLARI ORQALI PEDAGOGLAR SALOMATLIGINI SAQLASH. Экономика и социум, (6-1 (121)), 302-305.